

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**5-2025  
IJTIMOIY  
FANLAR**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

## IQTISODIYOT

**H.V.Ivонина, Ф.Ч.Бойко**

Сравнительный анализ моделей организационного туризма в Европе, СНГ и Азии: институциональные уроки для Узбекистана ..... 5

**Е.В.Голышева, Ш.Г.Хошимов**

«Зигзагообразное» планирование туристских маршрутов как инструмент пространственного развития и устойчивости туризма (на примере Ферганской области) ..... 13

## FALSAFA

**S.A.Muradov**

Hind o'lkasida tasavvuf ta'limotining rivojlanish tendensiyasi ..... 22

**L.S.Yuldasheva**

Abu Ali ibn Sinoning "Urjuza" she'riy dostonining falsafiy tahlili ..... 26

**M.T.Xidirov**

Postnoklassik ilmiy tafakkur shakllanishida bilim va faoliyat dialektikasining o'rni ..... 30

**D.I.Saydullayeva**

Axloqiy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi ..... 35

**F.A.Yuldashev**

Raqamli jamiyat sharoitida shaxs ehtiyoj-manfaatlari va ekzistensial jarayonlar: ijtimoiy-falsafiy tahlil ..... 38

**R.Orziboyev**

Yoshlar g'oyaviy birdamlik fazilatlarini yuksaltirish integratsiyasida musiqiy merosning o'rni ..... 43

**C.Бусала**

Изучение искусственного интеллекта через призму философского пространства и времени ..... 47

**Y.A.Xudoyqulov**

Zamonaviy jamiyatda harbiy fanni yuksaltirishga doir ilmiy-amaliy tadqiqotlar metodologiyasi ..... 51

**R.S.Raupova, N.Rajabova**

Imom ash-Shotibiyning qiroat ilmidagi xizmatlari va uning ilmiy merosi ..... 55

**E.I.Tursunaliyeva**

Ijtimoiy davlat fenomeni: nazariy yondashuvlar va xalqaro tajriba ..... 58

**G.A.Raximova**

Milliy madaniyatni rivojlantirish va saqlab qolishning ijtimoiy omillari ..... 62

**M.Z.Jumayeva**

Globalashuv sharoitida yangi O'zbekiston: ulkan maqsadlar va zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim xususiyatlari ..... 67

**A.A.Qambarov**

Is'hoqxon to'ra ibrat ilmiy merosining falsafiy tahlili ..... 72

**B.S.Ganiyev, I.B.Xolmatov**

Jamiyatimiz yangi taraqqiyot bosqichida sportni – ijtimoiy fenomen sifatida qaror topishining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari ..... 77

**L.E.Tursunova**

Tilab Mahmudovning milliy estetik merosga qo'shgan hissasi ..... 83

**A.A.Mo'ydinov**

Ma'naviy amaliyot kategoriyasining ijtimoiy-falsafiy talqini ..... 87

**M.K.Soipova**

Fazl ibn Ahmad qarashlarida axloqiy masalalarning falsafiy tahlili ..... 93

**M.K.Soipova**

Yangi O'zbekistonda yoshlarni komillikka erishishida Fazl ibn Ahmad merosining o'rni ..... 96

**G.A.Qamariddinova**

"Rashahotu aynil-hayot" asarida insonparvarlik va ma'rifatli jamiyat konsepsiyasi ..... 100



UO'K: 316.42:327.8(575)

## GLOBALLASHUV SHAROITIDA YANGI O'ZBEKISTON: ULKAN MAQSADLAR VA ZAMONAVIY JAMIYAT TARAQQIYOTINING MUHIM XUSUSIYATLARI

### НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ВЕЛИКИЕ ЦЕЛИ И ВАЖНЕЙШИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОГО ОБЩЕСТВА

### NEW UZBEKISTAN IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION: GREAT GOALS AND KEY FEATURES OF MODERN SOCIETY DEVELOPMENT

Jumayeva Muattar Zohid qizi 

Buxoro davlat universiteti "Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa" kafedrası o'qituvchisi

#### Annotatsiya

Mazkur maqolada globallashuv jarayonining Yangi O'zbekiston taraqqiyotiga ko'rsatayotgan ijobiy va salbiy ta'sirlari ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Yangi O'zbekiston konsepsiyasi doirasida inson qadrini yuksaltirish, milliy o'zlikni asrash, ijtimoiy adolatni ta'minlash, raqobatbardosh iqtisodiyot va ma'naviy barkamol jamiyat barpo etish kabi ulkan maqsadlarning globallashuv kontekstida tutgan o'rni yoritilgan. Shuningdek, global jarayonlar fonida milliy qadriyatlarni saqlab qolish, ma'naviy immunitetni mustahkamlash hamda ilg'or xalqaro tajribalarni milliy taraqqiyot strategiyasiga uyg'unlashtirish zarurati ilmiy-nazariy asosda bayon etilgan.

#### Аннотация

В данной статье с социально-философской точки зрения анализируются положительные и отрицательные воздействия процессов глобализации на развитие Нового Узбекистана. В рамках концепции «Новый Узбекистан» раскрывается значение таких великих целей, как возвышение человеческого достоинства, сохранение национальной самобытности, обеспечение социальной справедливости, построение конкурентоспособной экономики и духовно зрелого общества в контексте глобализационных процессов. Кроме того, научно-теоретически обоснована необходимость сохранения национальных ценностей, укрепления духовного иммунитета и гармоничного внедрения передового международного опыта в стратегию национального развития.

#### Abstract

This article provides a socio-philosophical analysis of the positive and negative impacts of globalization on the development of New Uzbekistan. Within the framework of the "New Uzbekistan" concept, the role of major goals-such as enhancing human dignity, preserving national identity, ensuring social justice, building a competitive economy, and creating a spiritually mature society-is examined in the context of global processes. The paper also scientifically substantiates the need to preserve national values, strengthen spiritual immunity, and harmoniously integrate advanced international experience into the national development strategy.

**Kalit so'zlar:** Yangi O'zbekiston, globallashuv, inson qadri, ijtimoiy-falsafiy taraqqiyot, milliy qadriyatlar, ma'naviy yangilanish, modernizatsiya, global muhit, fuqarolik jamiyati, barqaror rivojlanish.

**Ключевые слова:** Новый Узбекистан, глобализация, человеческое достоинство, социально-философское развитие, национальные ценности, духовное обновление, модернизация, глобальная среда, гражданское общество, устойчивое развитие.

**Key words:** New Uzbekistan, globalization, human dignity, socio-philosophical development, national values, spiritual renewal, modernization, global environment, civil society, sustainable development.

#### KIRISH

Globallashuv - bu bugungi insoniyat taraqqiyotining eng murakkab, ayni paytda eng muhim jarayonidir. U siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy sohalarda chegaralarni kengaytirib, butun dunyoni yagona axborot va hamkorlik maydoniga aylantirmoqda. Shu jarayonda har bir davlat o'z milliy manfaatlarini asrab, global raqobat muhitida munosib o'rin egallashga intilmoqda. Ayniqsa, Yangi O'zbekiston taraqqiyot yo'lida globallashuvning imkoniyat va tahdidlarini chuqur anglab, uni milliy strategik maqsadlar bilan uyg'unlashtirishga katta e'tibor qaratmoqda.

Yangi O'zbekiston g'oyasi mohiyatan inson qadrini yuksaltirish, adolatli va farovon jamiyat barpo etish, fuqarolik mas'uliyatini kuchaytirish hamda ma'naviy yangilanishni ta'minlashga qaratilgan. Bu yo'lida globallashuv jarayonining ijobiy jihatlari - ilg'or tajriba, innovatsiya, ochiqlik,



axborot almashinuvi - mamlakat taraqqiyotiga yangi ufqlar ochmoqda. Shu bilan birga, global jarayonlar insonning ma'naviy olamiga, milliy qadriyatlariga, o'zlikni anglashiga ma'lum bosim o'tkazayotgani ham haqiqatdir.

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonning ulkan maqsadlari - iqtisodiy islohotlar samaradorligi, adolatli boshqaruv tizimi, yoshlar tafakkurini yangilash, ilm-fan va ta'lim sohalarini modernizatsiya qilish, ekologik barqarorlikni ta'minlash - aynan globallashuv sharoitida o'zining yangi mazmun va shaklini topmoqda. Shu bois, bu jarayonni faqat tashqi ta'sir sifatida emas, balki milliy tiklanish va ma'naviy uyg'onishning turtkisi sifatida ko'rish zarur.

Shunday qilib, ushbu mavzu doirasida globallashuvning Yangi O'zbekiston taraqqiyotiga ko'rsatayotgan ijtimoiy-falsafiy ta'sirlarini, uning ijobiy imkoniyatlari va potensial xavf-xatarlarini tahlil etish orqali zamonaviy jamiyatning o'ziga xos rivojlanish xususiyatlarini ochib berish maqsad qilib olinadi. Bu nafaqat milliy istiqbolni belgilovchi, balki global o'zgarishlar sharoitida O'zbekistonning o'z yo'lini mustahkamlashga xizmat qiluvchi ilmiy va falsafiy muammolardan biridir.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Globallashuv va milliy taraqqiyot masalalari bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, mazkur jarayon nafaqat iqtisodiy yoki siyosiy, balki chuqur ijtimoiy-falsafiy mohiyatga ega. G'arb olimlari - U.Bek, E.Giddens, S.Hantington, F.Fukuyama kabi mutafakkirlar globallashuvni "insoniyatning yagona taqdir maydoni" sifatida talqin etgan bo'lsalar, Sharq mutafakkirlari uni milliy o'zlikni saqlash, ma'naviy qadriyatlarni asrash bilan uyg'unlikda o'rganadilar. O'zbekistonlik tadqiqotchilar esa (Sh.Mirziyoyev, A.Sa'dullaev, N.Jo'raev va boshqalar) globallashuvni Yangi O'zbekiston konsepsiyasi bilan uyg'un holda tahlil qilib, inson qadri yuksaltirish, milliy manfaatlarini himoya qilish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash g'oyalari bilan boyitmoqdalar.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida dialektik yondashuv, tizimli tahlil, aksiologik va sivilizatsion yondashuvlardan foydalaniladi. Ushbu metodologiya globallashuv jarayonining murakkab mohiyatini ochib berish, Yangi O'zbekiston taraqqiyotidagi ijobiy va salbiy omillarni farqlash, milliy qadriyatlar bilan global tendensiyalar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni falsafiy-nazariy jihatdan anglash imkonini beradi.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Globallashuv jarayoni bugungi kunda insoniyat taraqqiyotining bosh yo'nalishlaridan biri sifatida dunyo mamlakatlarining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga chuqur kirib bormoqda. Bu jarayon nafaqat global integratsiya imkoniyatlarini, balki milliy mustaqillik, ma'naviy qadriyatlar va madaniy o'zlikka tahdid soluvchi omillarni ham yuzaga chiqarmoqda. Shunday sharoitda Yangi O'zbekistonning asosiy maqsadi - globallashuvning ijobiy jihatlari o'zlashtirgan holda, milliy o'zlikni asrab qolish, inson qadri va ma'naviy barkamollikni jamiyat taraqqiyotining markaziy omiliga aylantirishdan iboratdir.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Insoniyat dunyosining buyuk bir yoritqichi - bu ma'naviyat chirog'idir. U inson tafakkurini yoritadi, qalb va vijdonni uyg'otadi, odamiylikni mustahkamlaydi." Yangi O'zbekiston taraqqiyoti aynan mana shu ma'naviy uyg'onish, ma'rifat va insonparvarlik ruhiga tayanadi. Chunki iqtisodiy va siyosiy islohotlar faqat ma'naviyat bilan uyg'unlashgandagina barqaror natijaga olib keladi.

Jamiyat taraqqiyotida ma'naviyat - ichki kuch, ijtimoiy barqarorlik va intellektual uyg'onishning manbaidir. Agar ma'naviyat boyisa, jamiyat ravnaq topadi; agar u zaiflashsa, jamiyat tanazzulga yuz tutadi. Shu bois Yangi O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida ma'naviy-ma'rifiy siyosatning ustuvorligi - milliy qadriyatlarni saqlash, yoshlarni ezgulik, sabr-toqat, adolat va ilm-ma'rifat ruhida tarbiyalash orqali jamiyatning barqaror poydevorini yaratishga qaratilgan.

Boshqa tomondan, globallashuv axborot oqimining tezlashuvi, texnologik yangilanishlar va madaniyatlararo aloqalarning kengayishi bilan jamiyat hayotining barcha jabhalariga ta'sir etmoqda. Shu sababli boshqaruv, ta'lim, ijtimoiy soha va madaniyatda zamonaviy texnologiyalar bilan bir qatorda ijtimoiy-madaniy texnologiyalar ham ahamiyat kasb etmoqda. Elton Meyoning "Xotom tajribalari" misolida bo'lgani kabi, inson omiliga e'tibor berish, ishtirokchilik, g'amxo'rlik va ruhiy iqlimni yaxshilash samaradorlikni oshirishning muhim omiliga aylangan.

Ammo globallashuvning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, u mafkuraviy tahdidlar, madaniy assimiatsiya, diniy ekstremizm va g'oyaviy bo'shliq kabi xavflarni ham olib kiradi. Yangi O'zbekiston aynan shunday xavflar qarshisida o'z ma'naviy immunitetini mustahkamlash, yoshlar ongi va tafakkurini asrash, milliy g'oya va mafkura poydevorini yanada kuchaytirish orqali o'z yo'lini belgilab bormoqda.



## FALSAFA

Shu nuqtayi nazardan, Yangi O'zbekiston – bu globallashuv sharoitida inson qadri, milliy o'zlik va zamonaviy taraqqiyot uyg'unlashgan yangi ijtimoiy-falsafiy modeldir. U nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki jamiyatda ma'naviy uyg'unlash, adolat va fuqarolik mas'uliyatini kuchaytirishga qaratilgan konsepsiyani ifodalaydi.

Natijada O'zbekiston va Markaziy Osiyo xududida turli xil dunyoviy hamda diniy g'oya va mafkuralarga tayangan davlatlar va siyosiy kuchlarning manfaatlari o'zaro to'qnashib, davlatchiligimiz, xavfsizligimiz tinchlikbarqarorligimizga tahdid tug'dirdi. Mustaqilligimizdan keyingi yillarda O'zbekiston va Markaziy Osiyodagi tinchlik-totuvlik, barqarorlikka tahdid solgan omillardan biri bu missionerlik va prozelitizm harakatlari bo'lib, bu harakatlar muayyan siyosiy kuchlarning strategik geopolitik maqsad va manfaatlarini o'zida ifodalagan holda paydo bo'lib, faoliyat olib borishga harakat qildi. Missionerlar va prozelitlarning asosiy maqsadi diniy e'tiqod emas, balki siyosiy maqsadlar bo'lib, bu maqsadlar strategik siyosiy manfaatlar bilan uyg'un tarzda bog'lanib ketadi.

Hozirgi davrda xalqaro maydonda mafkura poligonlari yadro poligonlariga nisbatan ham ko'proq kuchga ega bo'lib, mustaqillikdan keyin O'zbekistonda "G'oyaga qarshi g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkinligi" mafkuraviy kurashning yangicha konsepsiyasi sifatida asoslab berildi.

Barchamizga ayonki, jahonda keskin iqtisodiy raqobat, axborot xurujlari, terroristik tahdidlar tobora kuchayib bormoqda, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - Dunyoning turli joylarida, ayniqsa, Yaqin Sharq mintaqasida qonli to'qnashuv va nizolar davom etmoqda, Ming afsuski, bunday notinch keskinlik o'choqlari kamayish o'rniga ko'payib bormoqda. Ana shunday tahlil va vaziyatni hisobga olgan holda, biz yurtimizda tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash, turli xavf-xatarlarga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatimizni har tomonlama kuchaytirishimiz shart. Bu – zamon talabi.

Buyuk davlatchilik shovinizmi, agressiv millatchilik, irqchilik, missionerlik, prozelitizm, diniy ekstremizm, fundamentalizm kabi zararli g'oyalar bugungi kunda xalqaro maydonda muayyan siyosiy, diniy guruhlar, tashkilotlar tomonidan geosiyosiy, geostrategik maqsadlarni amalga oshirish, g'oyaviy, mafkuraviy ta'sir o'tkazish vositasiga aylantirib borilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistondagi tinchlik-barqarorlik, millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglikka bevosita tahdid solayotgan bunday zararli g'oyalar va mafkuralarga qarshi fuqarolar ongi – tafakkuriga milliy istiqloq mafkurasi asosiy g'oyalari va tomoyillarini singdirib, ularning mafkuraviy immunitetini shakllantirish masalasiga davlatimiz tomonidan olib borilayotgan siyosatda katta e'tibor qaratilmoqda. Zararli g'oyalar va mafkuralar globallashuv sharoitida ma'naviy – mafkuraviy tahdid vositasi bo'lib, eng avvalo jahondagi muayyan siyosiy kuchlarning geopolitik maqsad va manfaatlariga yunaltilgan holatda olib borilmoqda. Shuning uchun ham bugungi kundagi eng muhim vazifa, bu o'sib kelayotgan, O'zbekistonning kelajagi bo'lgan yosh avlodni milliy g'urur va iftixor tuyg'usi ruhida tarbiyalash, ularning ongi – tafakkuriga milliy istiqloq mafkurasi asosiy g'oyalarini chuqurroq singdirib, ularning yot g'oya va mafkuralarga qarshi mafkuraviy immunitetini yanada kuchaytirishdan iboratdir.

Oldimizga qo'ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuchqudrat manbai bo'ladigan milliy g'oyani rivojlantirishimiz zarur, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - Xususan, milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim.

Bugungi kunda globallashuv jarayonlari tobora chuqurlashib borayotgan, insoniyat hayotining barcha jabhalariga – siyosat, iqtisod, madaniyat, ta'lim, axborot va ma'naviyat sohalariga kirib borayotgan bir davrda, O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lini milliy qadriyatlar va zamonaviy rivojlanish tamoyillari uyg'unligida belgilab olgan. Aynan shunday sharoitda mamlakatimizda olib borilayotgan ichki va tashqi siyosatda "barkamol avlod – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining poydevoridir" degan g'oya davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda.

Bu g'oya o'z mohiyatiga ko'ra, globallashuvning murakkab, ziddiyatli va raqobatbardosh sharoitida milliy davlat sifatida O'zbekistonning o'z yo'lini topishi, ma'naviy mustaqilligini saqlashi, axborot va mafkuraviy bosimlarga bardosh bera oladigan, fikrlavchi, tashabbuskor, vatanparvar yoshlar avlodini voyaga etkazish zarurati bilan bevosita bog'liqdir. Zero, har qanday davlatning kuchqudrati tabiiy boyliklar yoki harbiy salohiyatda emas, balki uning yoshlarining tafakkuri, bilim darajasi, ma'naviy barkamolligida namoyon bo'ladi.



Shu nuqtai nazardan, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida inson, xususan, yosh avlod masalasi barcha islohotlarning markaziga qo'yilgan. Bu strategiyada "avvalo inson manfaatlarini" tamoyili bosh g'oya sifatida e'tirof etilgan bo'lib, u mamlakatning har bir sohasida – ta'lim, fan, iqtisodiyot, siyosat, madaniyat va boshqaruv tizimida yangi yondashuvlarni shakllantirmoqda.

Globallashuv sharoitida yoshlar ongiga turli g'oyalar, madaniy oqimlar, turmush tarzlari ta'sir qilayotgan bir paytda, O'zbekiston o'zining ma'naviy mustaqilligini saqlab qolish uchun keng ko'lamli ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy-siyosiy islohotlar tizimini joriy etmoqda. Barkamol avlodni tarbiyalashda esa uchta asosiy yo'nalish etakchi ahamiyat kasb etmoqda:

1. Ta'lim va fan tizimini modernizatsiya qilish – bu jarayon Yangi O'zbekiston taraqqiyotining asosiy omilidir. Zamonaviy ta'lim texnologiyalarining joriy etilishi, yoshlarning ijodiy fikrlashi va innovatsion salohiyatini rivojlantirish globallashuvning intellektual raqobatiga tayyor bo'lgan avlodni shakllantiradi.

2. Ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash – globallashuv axborot maydonidagi g'oya kurashlarini keskinlashtirgan bir paytda, milliy o'zlikni, vatanparvarlikni, tarixiy xotirani, til va madaniyatni asrash Yangi O'zbekistonning strategik ustuvor vazifasidir.

3. Ijtimoiy adolat va fuqarolik mas'uliyatini oshirish – jamiyatda insonning qadri, huquqi va erkinligi e'zozlangan muhitni yaratish, yoshlarning davlat va jamiyat hayotidagi faolligini kuchaytirish ma'naviy barkamollikning amaliy ko'rinishidir.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek:

Biz yangi O'zbekistonni bunyod etish yo'lida eng avvalo ma'naviy barkamol, yurt ravnaqi uchun mas'uliyatni chuqur his etadigan yoshlarni tarbiyalashimiz zarur. Chunki ma'naviyat – xalqning ruhi, davlatning tayanchi, millatning abadiyligidir.

Shunday ekan, Yangi O'zbekistonning har bir islohoti – bu faqat iqtisodiy yoki siyosiy yangilanish emas, balki inson ongini, tafakkurini va ma'naviyatini yangilash jarayonidir. Bu jarayonni globallashuvning "axborot bosimi"ga nisbatan ma'naviy immunitet sifatida ko'rish mumkin.

Barkamol avlod g'oyasi globallashuv sharoitida o'zining falsafiy mazmuni bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi. U shaxsni nafaqat bilimli, balki axloqan etuk, ma'suliyatli, vatanparvar va global tafakkurga ega inson sifatida kamol toptirishga yo'naltirilgan. Bunday avlod – millatning g'oyaviy mustahkamligi, ijtimoiy barqarorligi va iqtisodiy taraqqiyotining kafolatidir.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim xususiyati – bu inson kapitalining sifat jihatdan o'sishi, ijtimoiy ongning yangilanishi va innovatsion tafakkurning kuchayishidir. Yangi O'zbekiston bu jarayonlarda faqat iste'molchi emas, balki faol ishtirokchi, ya'ni o'z taqdirini o'zi belgilaydigan davlat sifatida maydonga chiqmoqda.

Globallashuv sharoitida O'zbekiston uchun eng muhim maqsad – milliy o'zlikni saqlagan holda global taraqqiyotga integratsiyalashuvdir. Bu esa faqat barkamol, mustaqil fikrlovchi, milliy qadriyatlarini asragan, lekin dunyoqarashi keng yoshlar orqali amalga oshadi.

Barkamol avlodni tarbiyalash – Yangi O'zbekistonning global maydondagi eng yirik investitsiyasidir. Chunki bugungi yoshlar – ertangi kunning siyosatchilari, olimlari, iqtisodchilari, bunyodkorlari. Ularning ma'naviy va intellektual salohiyati qanchalik yuksak bo'lsa, O'zbekistonning ertangi kuni shunchalik porloq, globallashuvdagi mavqei shunchalik mustahkam bo'ladi.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Globallashuv sharoitida Yangi O'zbekiston taraqqiyoti - bu nafaqat siyosiy yoki iqtisodiy jarayon, balki chuqur ijtimoiy-falsafiy mazmunga ega milliy uyg'onish bosqichidir. Zamonaviy dunyoda har bir millat o'z o'rnini topish, o'zligini saqlab qolish va global maydonda raqobatbardosh bo'lish uchun nafaqat texnologik, balki ma'naviy qudratga ham ega bo'lishi zarur. Shu ma'noda, Yangi O'zbekiston g'oyasi - globallashuvning ijobiy jihatlarini milliy manfaatlar bilan uyg'unlashtirish, inson qadriyatini yuksaltirish, adolat va taraqqiyot tamoyillarini hayotga tatbiq etish orqali xalq farovonligini ta'minlashga qaratilgan konsepsiyadir.

Bugungi kunda globallashuv O'zbekiston uchun katta imkoniyatlar manbai bo'lib, u ilm-fan, ta'lim, texnologiya va boshqaruv sohalarida ilg'or tajribalarni o'zlashtirish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, u milliy qadriyatlar, ma'naviyat va o'zlikni anglashga nisbatan yangi sinovlarni ham yuzaga chiqarmoqda. Shuning uchun Yangi O'zbekiston taraqqiyotining eng muhim xususiyati - global ochiqlik va milliy o'zlik uyg'unligida barqaror rivojlanish modelini shakllantirishdir.

## FALSAFA

Yangi O'zbekiston - bu globallashuv davrida inson qadri, milliy qadriyatlar va zamonaviy taraqqiyot o'rtasida muvozanatni topgan, ijtimoiy adolat va ma'naviy yuksalishga tayanadigan, kelajakka ishonch bilan qadam qo'yayotgan davlat modelidir.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Мирзиёев Ш.М. Таълим ва маърифат – тинчлик ва бунёдкорлик сари йўл // Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. Тошкент, Ўзбекистон, 2017 йил, 27-28 бетлар.
2. Мирзиёев Ш.М. Конституция – эркин ва фаровон ҳаётимиз, мамлакатимизни янада тараққий эттиришнинг мустаҳкам пойдеворидир //Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. Тошкент, Ўзбекистон, 2018 йил.
3. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон ёшларига байрам табриги // Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. Тошкент, Ўзбекистон, 2019 йил.
4. Ш.Мирзиёев Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. Тошкент. Ўзбекистон, 2018. – Б.24.
5. Usarova F.X. Globallashuv sharoitida O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining milliy-ma'naviy negizlari. Toshkent, 2008.
6. Абдуллаев Т. Инсон эҳтиёжларининг шаклланиш хусусиятлари. ФарДУ Илмий хабарлари журнали: 2019 йил №1. –Б.65.
7. Қуронов М. Бизни бирлаштирган ғоя. –Тошкент: Фофур Фулом, 2016. -Б. 254.